

## JIZZAX VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL YANVAR-MART

(2023- yil yanvar-mart)

Aholi jon  
boshiga  
xizmatlar  
hajmi

1 443,8  
ming. so'm


Xizmatlar  
sohasida  
kichik tadbir-  
korlikning  
ulushi

58,7 %

Xizmatlar  
sohasidagi  
korxonalar  
va  
tashkilotlarning  
ulushi

60,0 %

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra,  
**2023- yilning yanvar-mart** oylarida  
ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2  
**135,9** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan  
yilning mos davriga nisbatan (116,5 %)  
o'sish sur'ati **105,4** % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)**  
**O'sish sur'ati (% da)**

**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'i idir.

<sup>1)</sup> Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar metodologiyaga muvofiq, har bir keyingi yil qayta ko'rib chiqilgan



# Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-mart)

|                                     | Hajmi,<br>mlrd. so'mda | Ulushi,<br>% da | O'sish<br>sur'ati,<br>% da |
|-------------------------------------|------------------------|-----------------|----------------------------|
| <b>Jizzax viloyati<sup>1)</sup></b> | <b>2 135,9</b>         | <b>100,0</b>    | <b>105,4</b>               |
| Jizzax sh.                          | 864,3                  | 40,5            | 100,9                      |
| <i>tumanlar</i>                     |                        |                 |                            |
| Arnasoy                             | 41,0                   | 1,9             | 115,4                      |
| Baxmal                              | 148,8                  | 7,0             | 108,8                      |
| G'allaorol                          | 185,1                  | 8,7             | 111,9                      |
| Sharof Rashidov                     | 287,2                  | 13,4            | 108,2                      |
| Do'stlik                            | 77,4                   | 3,6             | 110,4                      |
| Zomin                               | 174,6                  | 8,2             | 104,7                      |
| Zarbdor                             | 79,6                   | 3,7             | 109,2                      |
| Zafarobod                           | 37,7                   | 1,8             | 113,7                      |
| Mirzacho'l                          | 56,8                   | 2,7             | 95,5                       |
| Paxtakor                            | 70,7                   | 3,3             | 114,8                      |
| Forish                              | 95,1                   | 4,4             | 114,3                      |
| Yangiobod                           | 17,6                   | 0,8             | 88,5                       |

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

# Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart)




**2023- yilning yanvar-mart** oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 443,8 ming. so'mga yetdi. **2022-yilning yanvar-mart** oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar-mart)

|                 | Hajmi,<br>ming. so'mda | O'sish sur'ati,<br>% da |
|-----------------|------------------------|-------------------------|
| Jizzax viloyati | 1 443,8                | 103,1                   |
| Jizzax shahri   | 4 492,2                | 98,3                    |
| tumanlar        |                        |                         |
| Arnasoy         | 853,2                  | 113,7                   |
| Baxmal          | 890,2                  | 106,5                   |
| G'allaorol      | 1 009,6                | 109,6                   |
| Sharof Rashidov | 1 209,6                | 105,5                   |
| Do'stlik        | 1 121,1                | 108,5                   |
| Zomin           | 993,4                  | 102,3                   |
| Zarbdor         | 857,2                  | 106,6                   |
| Zafarobod       | 714,2                  | 111,3                   |
| Mirzacho'l      | 1 041,1                | 93,8                    |
| Paxtakor        | 889,9                  | 112,2                   |
| Forish          | 980,9                  | 112,5                   |
| Yangiobod       | 595,8                  | 87,3                    |

**2019- yil yanvar-mart** oylariga nisbatan **2023- yil yanvar-mart** oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi **668,8** mlrd. soʻmga oshib, **1 254,7** mlrd. soʻmni tashkil etdi.




Koʼrsatilgan bozor xizmatlarining umumiylajmida ularning ulushi **58,7 %** ni, shu jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar **18,4 %** ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sektori iqtisodiyotning barqaror oʼsishiga, yangi ish oʼrinlarini yaratishga, daromadlarni oshirishga va aholi farovonligini taʼminlashga yordam beradi.



Xizmatlar sohasida band boʼlgan kichik tadbirkorlik umumiylajmining **37,5 %** i yoki **323,8** mlrd. soʻmni Jizzax shahri egallaydi.

### Xizmatlar sohasida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi (2023- yil yanvar-mart)



■ Kichik korxona va mikrofirmalar




# Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-mart)

|  | Hajmi,<br>mlrd. so'mda | Ulushi,<br>% da | O'sish<br>sur'ati,<br>% da |
|--|------------------------|-----------------|----------------------------|
| <b>Xizmatlar – jami</b>  | <b>2 135,9</b>         | <b>100,0</b>    | <b>105,4</b>               |
| <i>shu jumladan:</i>   |                        |                 |                            |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari  | 115,4                  | 5,4             | 125,1                      |
| Moliyaviy xizmatlar  | 614,4                  | 28,8            | 111,8                      |
| Transport xizmatlari   | 306,4                  | 14,3            | 103,3                      |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>  | 299,5                  | 14,0            | 100,6                      |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari  | 69,2                   | 3,2             | 102,5                      |
| Savdo xizmatlari   | 623,4                  | 29,2            | 102,7                      |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar  | 37,1                   | 1,7             | 101,5                      |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar  | 89,0                   | 4,2             | 97,2                       |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar   | 36,2                   | 1,7             | 80,4                       |
| Ijara xizmatlari   | 35,9                   | 1,7             | 96,4                       |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar                          | 54,6                   | 2,6             | 101,0                      |
| Shaxsiy xizmatlar  | 61,5                   | 2,9             | 101,6                      |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 27,9                   | 1,3             | 106,2                      |
| Boshqa xizmatlar   | 64,9                   | 3,0             | 102,2                      |

(yanvar-mart)




2019- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi **447,1** mlrd. soʻmga oshib, **614,4** mlrd. soʻmga yetdi. Ushbu xizmatlarning umumiyligi hajmidagi ulushi **28,8** % ni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning jami oʼsish surʼati **111,8** % ni tashkil etdi .

— Hajmi,mlrd. soʻmda      ⇔ Oʼsish surʼati, % da

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʼlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʼyicha xizmatlari uchun toʼlanadigan haq hisobiga koʼra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-mart)

**2023- yilning yanvar-mart oylarida** moliyaviy xizmatlar tarkibida sugʼurta va nafaqa taʼminoti boʼyicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **95,1** % ni tashkil etdi.



# Moliyaviy xizmatlar

(2023- yil yanvar-mart)

| Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi (% da) | Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar | Sug'urta bo'yicha xizmatlar | Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar |
|--|---|-----------------------------|---|
| Jizzax viloyati                                      | 95,1  | 3,6                         | 1,3   |
| Jizzax sh.   | 93,0  | 5,6                         | 1,4   |
| tumanlar   |   |                             |   |
| Arnasoy  | 99,5  |                             | 0,5   |
| Baxmal   | 99,1  |                             | 0,9   |
| G'allaorol   | 99,2  |                             | 0,8   |
| Sharof Rashidov                                      | 98,9  |                             | 1,1   |
| Do'stlik   | 98,3  |                             | 1,7   |
| Zomin  | 99,2  |                             | 0,8   |
| Zarbdor  | 99,2  |                             | 0,8   |
| Zafarobod  | 99,5  |                             | 0,5   |
| Mirzacho'l   | 98,8  |                             | 1,2   |
| Paxtakor   | 98,7  |                             | 1,3   |
| Forish   | 99,1  |                             | 0,9   |
| Yangiobod  | 89,9  |                             | 10,1  |

## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi



(yanvar-mart)


**2023- yilning yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi 306,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan ushbu xizmat turining o‘sish sur’ati 103,3 % ni tashkil etdi.**




**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo‘yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog‘liq bo‘lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**2023- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, tashish va saqlash bilan bog‘liq faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 453 birlikni, yoki ularning umumiy sonining 3,7 % ini tashkil etdi. Ulardan 451 birlik (99,6 %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.**

## Transport xizmatlarining turlari bo‘yicha tarkibi (2023- yil yanvar-mart)



(yanvar-mart)



**2022-yilning yanvar-mart** oylariga nisbatan ushu xizmatlarning oʼsish surʼati **100,6 %** ni tashkil etdi. Koʼrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **14,0 %** ni tashkil etdi.

**2023- yilning yanvar-mart** oylarida avtomobil transportida koʼrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **299,5** mld. soʻmga yetdi.

## Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yuklarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **55,1 %**.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-mart oylarida ushu koʼrsatkich **56,3 %** ni tashkil etgan.



**2019- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2023- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 322,5 mlrd. so‘mga oshib, 623,4 mlrd. so‘mnni tashkil etdi.**

**2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan ushbu xizmat turi bo‘yicha o‘sish sur’ati 102,7 % ga yetdi.**



**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya’ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiyligi sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.**



**2023-yil 1-aprel holatiga ko‘ra xizmatlar sohasiga tegishli faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida ularning savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ulushi (44,4 % yoki 5 486 dona) ustunlik qiladi, shundan 99,8 % (5 475 dona) kichik biznes subyektlari hisoblanadi.**

(2023- yil yanvar-mart)

## Savdo xizmatlari

- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar** **81,3 %**
- Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlari** **8,9 %**
- Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar** **9,8 %**

| Hududlar kesimida | <i>Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar</i> | <i>Ulgurji savdo xizmatlari</i> | <i>Chakana savdo xizmatlari</i> |
|-------------------|---|---------------------------------|---------------------------------|
| Jizzax viloyati   | 9,8   | 8,9                             | 81,3                            |
| Jizzax sh.        | 11,8  | 18,2                            | 70,0                            |
| tumanlar          |   |                                 |                                 |
| Arnasoy           | 5,7   | 13,3                            | 81,0                            |
| Baxmal            | 33,8  | 4,2                             | 62,0                            |
| G'allaorol        | 4,0   | 2,1                             | 93,9                            |
| Sharof Rashidov   | 7,5   | 8,1                             | 84,4                            |
| Do'stlik          | 6,8   | 17,5                            | 75,7                            |
| Zomin             | 4,6   | 7,7                             | 87,7                            |
| Zarbdor           | 2,0   | 3,6                             | 94,4                            |
| Zafarobod         | 4,7   | 4,2                             | 91,1                            |
| Mirzacho'l        | 2,2   | 12,2                            | 85,6                            |
| Paxtakor          | 6,1   | 4,8                             | 89,1                            |
| Forish            | 3,6   | 2,2                             | 94,2                            |
| Yangiobod         | 6,5   | 2,9                             | 90,6                            |

(yanvar-mart)



## 2023- yilning yanvar-mart


oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **115,4** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **125,1** % ni tashkil etdi.



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari** hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**2023- yilning 1- aprel** holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar soni **237** birlikka yetdi, shundan **220** birligi kichik tadbirkorlik subyektlari bo'lib hisoblanadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-mart)



(yanvar-mart)

**2023- yiling yanvar-mart** oylarida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **100,1 mldr. so'mni** tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **4,7 %** ni tashkil etgan.



**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.


## Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi (2023- yil yanvar-mart, mldr. so'mda)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Ta'lif sohasidagi xizmatlar

(yanvar-mart)



**2023- yil yanvar-mart oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **89,0** mld. so'mga yetdi.**

**2022- yil yanvar-mart oylariga** nisbatan ushbu xizmatlar hajmining **2,8 %** ga pasayganligi qayd etildi.



Ta'lif sohasidagi xizmatlarning umumiyligi hajmida oliy ta'lif sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yilning yanvar-mart** oylarida ularning ulushi **76,2 %** ni tashkil etdi.

**“Ta'lif” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'lifni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.


Bunga turli darajadagi muntazam muktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lif, shuningdek, kattalar uchun ta'lif (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lif sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lif sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

(yanvar-mart)



**2023- yil yanvar-mart** oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **36,2** mlrd. soʻmni yoki koʼrsatilgan bozor xizmatlari umumiylaj hajmining **1,7 %**ini tashkil etdi.



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun koʼrsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**2023- yilning 1- aprel** holatiga koʼra sog'liqni saqlash va ijtimoiy taʼminot sohasi xizmatlarida faoliyat koʼrsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **335** birlikni tashkil etdi, shundan **252** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

### Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-mart, mlrd. soʻmda)



(yanvar-mart)

**2019- yilning yanvar-mart** oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **43,2** mld. so'mga oshib, **69,2** mld. so'mni tashkil etdi.



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**2023- yilning 1- aprel** holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **1 229** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 225** birlik kichik biznes subyektlaridir.

**Yashash va  
ovqatlanish bo'yicha  
xizmatlar tarkibi  
(2023- yil yanvar-mart)**


**Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar**

**88,5 %**

**Yashash bo'yicha  
xizmatlar**

**11,5 %**

(yanvar-mart)




**2023- yilning yanvar-mart** oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **37,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiylajit hajmida ularning ulushi **1,7 %** ni tashkil etdi. **2022- yil yanvar-mart** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,5 %** ni tashkil etgan.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.


## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-mart , mlrd. so'mda)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

(yanvar-mart)




**2019- yilning yanvar-martiga** nisbatan ijara xizmatlari hajmi **15,5** mlrd. soʻmga oshib, **2023- yil yanvar-mart** oylarida **35,9** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi **1,7 %** ni tashkil etdi.



**Ijara xizmatlari** boʻyicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob- uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiyligi hajmida **2023- yil yanvar-mart** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **67,6 %** ni tashkil etdi.

Taʼkidlash joizki, respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining toʼlov qobiliyati va imkoniyatlari, shuningdek, isteʼmolchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanish darajasiga, ayniqsa, zamonaviy xizmat turlari (AKTdan foydalangan holda)ga bogʼliqdir.



Xizmatlar sohasi statistikasi boʼlimi Tel.: 72-222-79-76